UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

IJTIMOIY STIGMA:NEGA BIZ OITSDAN QO'RQAMIZ

Aliqulova Shaxzoda Otabek qiz
Toshkent shahridagi Kimyo Xalqaro Universiteti
Stomatologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Yurtimizda "XXI asr o'lati" deb nom olgan OITS (Odam immuniteti tanqisligi sindromi) kasalligi bilan hastalangan insonlarning hayotida sodir bo'ladigan ijtimoiy stigma, kelib chiqish sabablari va jamiyatga tasiri haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda OIV (Odam immuniteti tanqisligi virusi)ga nisbatan sodir bo'ladigan qo'rquv omillarining psixologik hamda ijtimoiy ildizlari tavsiflab beriladi. Maqola so'ngida stigmani kamaytirish bo'yicha ijtimoiy-ma'rifiy chora tadbirlar yuzasidan mulohazalar yuritiladi.
Kalit so'zlar:OITS, OIV, ijtimoiy stigma, qo'rquv, ma'rifat, jamiyat, salomatlik.

Аннотация.В статье рассматривается социальная стигма, возникающая в жизни людей, инфицированных СПИДом (синдромом приобретённого иммунодефицита человека), который в нашей стране получил название "чума XXI века". Анализируются причины её возникновения и влияние на общество. Также описываются психологические и социальные корни факторов страха, связанных с ВИЧ (вирусом иммунодефицита человека). В заключительной части статьи представлены социально-просветительские меры по снижению стигматизации.
Ключевые слова: СПИД, ВИЧ, социальная стигма, страх, просвещение, общество, здоровье.

Abstract. The article discusses the issue of social stigma that occurs in the lives of people living with AIDS (Acquired Immunodeficiency Syndrome), which has been referred to in our country as the "plague of the 21st century", as well as the causes of its emergence and its impact on society. In addition, the psychological and social roots of fear-related factors toward HIV(Human Immunodeficiency Virus) are described. The article concludes with reflections on socio-educational measures amied at reducing stigma.
Key words:AIDS, HIV, social stigma, fear, enlightenment, society, health.

Kirish. XX asrda dunyo xalqlari o'rtasida eng global muammolardan biri OITS va OIV insoniyat tarixidagi eng xavfli va sog'liq to'g'risidagi xavf-hatar bo'lib kelmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda OITS kasalligi bilan istiqomat qiladigan insonlar soni 50 milliondan ortiqni tashkil qiladi. Hozirgi kunda OITS kasalligi tibbiyotda chuqur o'rganilib kelinayotgan bo'lishiga qaramay, u bilan bog'liq ijtimoiy stigma ko'plab mamlakatlarda, shu bilan birgalikda O'zbekistonda ham dolzarb muammo bo'lib kelmoqda.

Ijtimoiy stigma va diskriminatsiya nima?

Ijtimoiy stigma va diskriminatsiya bu OITS va OIV kasalligiga qarshi kurashishda to'sqinlik qiladigan jarayon hisoblanadi. Kasalligi oshkor bo'lishidan qo'rqan insonlar aynan shu omillar tufayli tibbiy ko'rikdan o'tishni kasallikka qarshi kurashish dispanserlariga borishdan bosh tortishadi. Bu kabi omillar kasallikni yanada avj olishiga va insonlarni psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Qolaversa gap so'zlardan qo'rqqan insonlar o'zlarini ijtimoiy hayotdan ajralib qolgandek his qilishadi va o'z his tuyg'ularini ifodalab berishga qiynalishadi. Bu esa insonlarni o'z qobig'iga o'ralib qolgan odamlarda psixologik jihatdan muammolar paydo bo'lishni boshlaydi, surunkali stress esa esa OITS va OIV "changaliga" tushib qolgan immunitet tizimini yanada yomonlashishiga sabab bo'ladi.

1.OITS va ijtimoiy stigma o'rtasidagi bog'liqlik

OITS kasalligining o'ziga xosligi shundaki, bu kasallik faqat biologik emas, balki ijtimoiy fenomen sifatida ham qaraladi. Virusning yuqish yo'llari: jinsiy aloqa, qon orqali,biologic suyuqliklar(urug' suyuqligi, vaginal secret,rektal ekssudat)yoki onadan bolaga (OIV RNK konsentratsiyasi bilan bog'liq) shu kabi yo'llar orqali yo'qadi. Bu kasallikni yuqish yo'llari bizning jamiyatda "axloqiy muammo" deb qaraladi. Kasallikning bunday atalganligi tufayli ham test topshirishga to'siqlar, stigma va differensiallangan xizmat ko'rsatish modellarining cheklanganligi erta tashxis qo'yish va davolanishni davom ettirishga to'sqinlik qilmoqda.Ijtimoiy stigma sababli ham OITS bilan kasallangan insonlar jamiyatda qanday o'zgarishlar bo'layotganligidan bexabar qolmoqdalar ya'ni jamiyatdan uzilib qolib hayotimizda bo'layotgan voqea va jarayonlarga ishtirok etishdan bosh tortishadi. Bu esa o'zlarini "aybdor" hisoblashlariga olib keladi. Lekin OITS bilan kasallangan insonlar va boshqa og'ir xastalik bilan kurashayotgan insonlar "jamiyatimizning bir bo'lagi" hisoblanadilar. Shu bilan birgalikda ular ham kasal bo'lishlariga qaramay qonunda belgilab qo'yilgan holatda jamiyatdagi har bir jarayonga ishtirok etishlari va o'z fikrlarini namoyon qilish huquqlariga egadirlar.

2.OITSdan qo'rqish sabablari

OITS kasalligiga bo'lgan qo'rquv sabablarini bir nechta omillar yordamida ko'rib chiqsak.

Bilimsizlik va noto'g'ri ma'lumotlar

Ko'plab insonlar OITS haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar, ma'lumotga ega insonlarning aksariyat qismi ham noto'g'ri ma'lumotga tayanib harakat qilishadi. O'zbekistonda o'tkazilgan Ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqoti (MCIS) natijalariga ko'ra: 15-24 yoshdagi yosh ayollarning atigi 10% OITS haqida to'gri va to'liq ma'lumotga ega. 15-19 yoshlilar orasida esa bu ko'rsatkichlar anchagina past bo'lib atiga 6,5%ni belgilamoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, ayrim insonlar "OITS kasalligini oddiy ijtimoiy kontakt bilan yuqishi mumkin" deb hisoblaydilar. Ya'ni buning asosiy qo'rquv manbayi:odamlar virus havodan tarqaladi, qo'l berib so'rashish yoki quchoqlashish, birga ovqatlanish bitta idishdan ovqat iste'mol qilish orqali yuqadi deb fikr yuritadilar. Lekin haqiqat shundaki OITS va OIV kasalliklari kundalik insonlar bilan qilinadigan muloqotlar orqali yuqmaydi. Bilimsizlik "Har ehtimolga qarshi uzoqroq yurish" instinktini uyg'otmoqda.

Tarixiy xotira (O'limdan qo'rqish)

1980-yillarda OITS kasalligi "o'lim hukumi" sifatida qoralanib kelgan. O'sha davrdagi qo'rqinchli holatlar va davolash chora tadbirlarining yo'qligi sababli odamlar ongida "OITS=O'lim" degan tenglama muhrlanib qolgan.Shu bilan birgalikda bu kasallik haqida OAV faqat ma'lum ijtimoiy guruhlar (maslan,jinsiy ozchilliklar yoki giyohvandlar) bilan bog'langan. Chunki OITS kasalligini yuqtirgan odamlar axloqsiz va aybdor deb qoralanib kelingan. Bu kasallikning kelib chiqshi jamiyatda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarga nisbatan salbiy munosabatlar mavjud edi. Lekin bu kasallikni yuqtirish faqatgina axloqiy emas balki tibbiy holatdir. Har qanday inson ham o'zi bilmagan holatda boshqa yo'llar orqali bu kasallikni yuqtirib olishlari mumkin.

Axloqiy tamoyillar.

Ko'plab mamlakatlar madaniyatida OITS kasalligi tibbiy muammo emas, balki "axloqiy zaiflik"deb qaralib kelinmoqda. Jamiyatda ushbu kasallik faqat "noto'g'ri hayot tarzi (giyohvandlik va tartibsiz jinsiy aloqa) natijasida yuqadi" degan fikr bilan yashashadi.UNAIDS tashkilotini fikriga qaraganda "OITS faqat jinsiy yo'l bilan yuqmaydi- bu virus qon orqali yoki onadan bolaga ham o'tadi" deya mulohaza yuritadi.

Kasallikni bunday atalganli sababli OITS bilan kasallangan insonni "aybdor" deb hisoblashga va uni kamsitishga zamin yaratilib kelmoqda. Lekin virus tibbiy muolaja yoki boshqa tasodifiy yo'llar orqali ham yuqishi ehtimoli yuqori.

Psixologik omillar

Odamlarda noma'lum narsalarga ishonchsizlik juda ham yuqori. Inson psixologiyasi o'zidan ajralib turadigan yoki "nosog'lom" ko'ringan narsalardan himoyalanadilar. Kasallikni og'ir bosqichlarida odamlar ozib ketishi yoki jismoniy mashqlar bilan shug'ulana olmasliklari tufayli o'zlarini aybdor his qilishadi va shu bilan birgalikda ularda real qo'rquv paydo bo'lishni boshlaydi.

OITS uzoq yillar davomida sirli va davosiz kasallik sifatida talqin qilinganligi tufayli hozirgi kunga qadar insonlarda bu kasallik haqidagi fikr mulohazalar inson ongiga chuqur ildiz otib kirib bormoqda. Bu esa OITS bilan kasallangan insonlarning jamiyatdan uzoqlashib borishiga sabab bo'ladi.

3.Stigmaning oqibatlari

Ijtimoiy stigma OITS bilan kasallangan insonlarning har bir daqiqasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ruhiy salomatlikka:OITS bilan kasallangan insonlar orasida o'z joniga qasd qilish ko'p uchrab turadi. Buning asosiy sababi depressiya, o'zini o'zi yakkalash hisoblanadi. Depressiyaga tushgan insonning immun tizimi keskin ravishda tushib ketadi bu esa kasallikni yanada avj olib rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy hayotga:OITS bilan kasallangan insonlarning ish joyida, universitet (maktabida) yoki oilaviy muhitda kamsitishlar vujudga keladi. Bunday jarayonlar sodir bo'lganda nafaqat OITS kasalligi bilan xastalangan balki boshqa og'ir xastaliklar bilan kurashayotgan insonlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. OITS va OIV bilan kasallangan bemorlar kasallikdan ko'ra ko'proq yolg'izlik va jamiyatning nafratidan qiynalishadi. Shu bilan bir qatorda bemorlar davolanishdan bosh tortib, kelmoqda, buning asosiy sababi esa **stigma.** Stigma sababli insonlar yordam so'rashga uyalishadi, bu esa kasallikning yanada avj olishiga sabab bo'lib qolmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida odamlar qo'rquv sababli tibbiy yordam so'rashni kechiktirishadi, bu esa kasallikni tarqalishiga sabab bo'ladi(UNAIDS 2023).

Shunday qilib, stigma faqat bemor uchun emas, balki butun jamiyat uchun xavfli oqibatlar keltirib chiqarmoqda.

4.Stigmaga qarshi kurashish yo'llari

Ijtimoiy stigma bilan kurashish maqsadida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora tadbirlar olib borish kerak.

Ta'lim va ma'rifat:OIV va OITS haqida aniq va to'liq ishonchli ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari(OAV) va ta'lim tizimi orqali yetkazib borilishi kerak.

Empatik yondashuv:OITS bilan yashovchi insonlarga mehrlilikni, hamdardlikni va hurmatni oshirib borish joizdir. Shu bilan birgalikda ularni insonlar orasiga qo'shish va ular bilan ko'proq yaxshi voqea va hodisalar to'g'risida muloqotda bo'lish kerak.

Huquqiy muammo: Diskriminatsiyaga qarshi qonunlarni kuchaytirish va ularning amalda qo'lanilishini ta'minlashdan iborat. Bunga misol tariqasida:

1.O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

"Odam immunitet tanqisligi virusi(OIV) infeksiyasi tarqalishining oldini olish to'g'risida"gi Qonun(2013-yil yangilangan tahrirda)

- OIV bilan yashovchi shaxslarning huquqlari davlat himoyasidadir.
- OIV-status asosida ish joyida, ta'limda, tibbiyotda yoki ijtimoiy hayotda kamsitish taqiqlanadi.
- OIV-test natijasi tibbiy sir hisoblanadi va faqat shaxsning roziligi bilan oshkor etilishi mumkin.

Xalqaro me'yorlar

- BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- Har bir inson kamsitilishdan holi bo'lishi kerak.
- UNAIDS (BMTning OITS va OIV dasturi) tavsiyalariga ko'ra davlatlar OIV bilan yashovchi shaxslarni diskriminatsiyadan himoya qiluvchi maxsus qonun va siyosatlarni amalga oshirishi lozim

Tibbiy innovatsiyalarni targ'ib qilish: Antiretrovirus terapiya (ART) yordamida OIV bilan kasallangan insonlar umrini yetarli darajada uzaytira olishlari mumkin. Bunga misol tariqasida: samarali ART sharoitida CD4+ T-limfotsitlarda OIV replikatsiyasi bostiriladi, tizimli va local yallig'lanish kamayadi, genital sekretlardagi virus miqdori infeksiya yuqtirish chegarasidan past bo'ladi. Aniqlanmaslik chegarasi esa ko'pchilik klinik tadqiqotlarda <200 nusxa OIV RNK/ml chegarasi qo'llaniladi, bu PCR-testlarning analitik o'zgaruvchanligini va klinik xavfsizligini hisobga oladi. Shu bois ham OIV bilan yashovchi insonlar to'liq hayot kechira olishlari haqida jamoatchilikni xabardor qilishlari lozim.

Shu bilan birgalikda mamlakatlar(O'zbekiston ham) 2030-yilga qadar OIV bilan kasallanish xavfiga to'liq barham berishni maqsad qilgan. Biroq bunga barham berish uchun O'zbekiston 2025-yilga qadar JSSTning "95-95-95" strategiyasiga erishish zarur edi.

"95-95-95" loyihasiga ko'ra, OIV bilan kasallangan bemorlarning 95% o'z statusini bilishi, bemorlarning 95% maxsus terapiya bilan qamrab olinishi,bemorlarning 95% virus yuklamasi past darajaga tushishiga erishilishi lozim.

Xulosa. Insonlarning OITS va OIV kasalligidan qo'rqishining asosiy sababi-bilimsizlik, noto'g'ri ma'lumotlar va ijtimoiy stigmadir.Lekin hozirgi kunda tibbiyot sohasi rivojlanib borayotganligi uchun OITS kasalligi tibbiyot yutuqlari tufayli o'zi boshqariladigan holatga aylangan bo'lsa-da, ijtimoiy stigma tufayli hali ham jamiyatimizning ruhiy to'sig'i bo'lib kelmoqda.

Shu sababli ham OITSga qarshi kurashish faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy-ma'rifiy jarayon bo'lishi zarur. Insonlar orasida to'g'ri axborot, bag'rikenglik va empatiya muhitini yaratishimiz orqali biz OITS va OIVdan emas balki bilimsizlik va befarqlikdan himoyalanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2205344 Goffman.E (1963) "Stigma:Notes on the Management of spoiled Identity" Englewood Cliffs: Prentice-Hall
2. https://www.unaids.org/en/resources/fact-sheet?utm_source World Health Organizatsion (2024). "Global HIV and AIDS Statistics"
3. https://webtv.un.org/en/asset/k1i/k1ijum12yb UNICEF(2022) "HIV and AIDS Update"
4. https://webtv.un.org/en/asset/k1i/k1ijum12yb UNAIDS(2023) "The Global AIDS Update"
5. http://ssv.uz/ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2024). "OITS va OIVga qarshi kurash bo'yicha milliy hisobot"
6. www.PubMed.com